



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 284 sahifa,
1-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini.....	10
Usmonova Muattar Bahadirjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni	14
Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa	
Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari	17
Dilsora Shodmonova	
Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях	24
Истамова Нигора Азимжановна	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	29
Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi	
Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari.....	32
Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich	
Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari.....	36
Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li	
Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish.....	40
Artikov Xayrulla Baxtiyarovich	
Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline	44
Lola Mannobova	
Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries	48
Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları	51
Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi	
Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari	55
Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi	
O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni	59
Abdunazarov Abdumutal Olimovich	
Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari	64
Alimova Gulrux Farhod qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari	70
Axtamova Mohinur O'tkir qizi	
Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni	74
Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'liqinova Muxlisaxon Jamshid qizi	
O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida)	78
G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi	
Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi	82
Hamraqulova Durdona Dilshod qizi	
Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi	87
Hikmatova Yulduz Nuritdinovna	



Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari	91
<i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli	95
<i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i>	
Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)	98
<i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish	103
<i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish	107
<i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i>	
O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari	113
<i>Maxbuba Axatova</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	116
<i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar	120
<i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari... ..	123
<i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.....	126
<i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i>	
Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi	130
<i>Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	134
<i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	137
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli.....	142
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i>	
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari	146
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.....	149
<i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi	153
<i>Rahimova Sarvinoz Odilboy qizi</i>	
Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.....	157
<i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i>	
Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida..	161
<i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i>	
Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni..	173
<i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>	
Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	179
<i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i>	
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati	183
<i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i>	
Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish	188
<i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i>	
Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati.....	192
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari	276
Xidirov Faxriddin Fozilovich	
Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды	280
Рахмонова Нилуфар Уткир кизи	



INTERAKTIV TOPSHIRIQLAR ORQALI BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING CHET TILIGA BO'LGAN QIZIQISHLARINI INDIVIDUALLASHTIRISH

Nishonova Gulchehra Ravshanjon qizi

Andijon Davlat pedagogika

instituti pedagogika yo'nalishi 2-bosqich magistranti

ORCID-0009-0000-7101-7182

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet tilini o'qitishda interaktiv topshiriqlardan foydalanish orqali ta'lim jarayonini individuallashtirish masalasi chuqur tadqiq qilingan. An'anaviy o'qitish yondashuvlarining cheklolarini hisobga olib, dastlab o'quvchilarning axborotni qabul qilish xususiyatlari (vizual, audial va kinestetik) o'rganib chiqildi. Olingan ma'lumotlar asosida har bir o'quvchining shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirilgan interaktiv o'yinlar, ko'rgazmali vositalar va harakatli vazifalar tizimi ishlab chiqildi hamda bevosita amaliyotga joriy etildi. Tadqiqot natijasida shunday xulosaga kelindiki, bunday yondashuv bolalarning darsga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiribgina qolmay, ularning xotirasida yangi so'z va qoidalarning uzoqroq saqlanishini ta'minlaydi. Shuningdek, dars jarayonida o'quvchilar o'rtasida erkin muloqot muhiti shakllanib, ularning chet tilida gapirishdagi psixologik to'siqlari kamaygani o'z tasdig'ini topdi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, chet tili, individuallashtirish, interaktiv topshiriqlar, kognitiv xususiyatlar, ta'lim sifati, motivatsiya, psixologik to'siqlar, vizual o'rganish.

Abstract: In this article, the issue of individualizing the educational process by using interactive tasks in teaching foreign languages to primary school students is deeply investigated. Considering the limitations of traditional teaching approaches, the students' information perception characteristics (visual, auditory, and kinesthetic) were initially studied. Based on the obtained data, a system of interactive games, visual aids, and physical tasks adapted to the individual needs of each student was developed and implemented in practice. As a result of the research, it was concluded that this approach not only significantly increases children's interest in the lesson but also ensures the longer retention of new words and rules in their memory. Furthermore, it was confirmed that an atmosphere of free communication is formed during the lesson, which reduces their psychological barriers when speaking a foreign language.

Key words: primary school, foreign language, individualization, interactive tasks, cognitive characteristics, quality of education, motivation, psychological barriers, visual learning.

Аннотация: В данной статье глубоко исследован вопрос индивидуализации образовательного процесса путем использования интерактивных заданий при обучении иностранному языку учащихся начальных классов. Учитывая ограничения традиционных подходов к обучению, первоначально были изучены особенности восприятия информации учениками (визуальные, аудиальные и кинестетические). На основе полученных данных разработана и внедрена в практику система интерактивных игр, наглядных пособий и двигательных заданий, адаптированных к индивидуальным потребностям каждого ученика. В результате исследования сделан вывод, что такой подход не только значительно повышает интерес детей к уроку, но и обеспечивает более длительное сохранение новых слов и правил в их памяти. Также подтверждено, что в процессе урока формируется атмосфера свободного общения, что способствует снижению психологических барьеров при разговоре на иностранном языке.

Ключевые слова: начальная школа, иностранный язык, индивидуализация, интерактивные задания, когнитивные особенности, качество образования, мотивация, психологические барьеры, визуальное обучение.

KIRISH

Bugungi globallashuv va keskin raqobat davrida chet tillarini bilish shaxsning kelgusi ijtimoiy-iqtisodiy muvaffaqiyatini belgilovchi hamda jahon sivilizatsiyasiga integratsiyalashuvini ta'minlovchi asosiy omillardan biriga aylandi. Shu bois, xalqaro ta'lim amaliyotida xorijiy tillarni erta yoshdan, xususan, boshlang'ich sinflardan boshlab o'qitish davlat ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida qaralmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham xorijiy tillarni o'qitish tizimini tubdan takomillashtirish, dars jarayonlariga zamonaviy va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida yosh



avlodni zamonaviy bilimlari va chet tillarini puxta o'zlashtirgan yetuk kadrlar etib tayyorlash ta'lim sohasidagi bosh maqsadlardan biri etib belgilangan ^[1]. Xorijiy tillarni erta yoshdan o'rganish nafaqat kommunikativ ko'nikmalarni, balki bolaning umumiy kognitiv (bilish) qobiliyatlarini, mantiqiy fikrlashini va xotirasini ham jadal rivojlantirishi ilmiy jihatdan isbotlangan.

Shunga qaramay, amaliyotda til o'qitishning an'anaviy, asosan qoidalarni yodlatishga, tarjima qilishga va o'qituvchi markazda bo'lgan (teacher-centered) avtoritar metodlari hamon saqlanib qolmoqda. Bugungi kun o'quvchilari texnologiyalar qurshovida o'sayotgan "raqamli avlod" (digital natives) vakillari hisoblanib, ularda vizual qabul qilish va qisqa, yorqin tasvirlar orqali o'rganish ustunlik qiladi ^[2].

Shveysariyalik mashhur psixolog Jan Piaje (Jean Piaget) ning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari (7-11 yosh) "konkret operatsiyalar bosqichi"da bo'lib, ular abstrakt qoidalarni emas, balki aniq, ushlab ko'rish va ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lgan vositalarni yaxshi anglaydilar. Bu davrda bolalar o'yin faoliyatidan o'quv faoliyatiga o'tish inqirozini boshidan kechirayotgani uchun, ularning miya faoliyati quruq va zerikarli matnlarni emas, balki emotsional, ko'rgazmali va harakatli vositalarni tez o'zlashtiradi ^[3].

Agar shu bosqichda darslar qolipga tushgan yondashuvlar asosida o'tilsa, bolalarda tilga nisbatan sun'iy qo'rquv paydo bo'ladi. Shu sababli, chet tili darslarini umumiy qoliqlar asosida emas, balki interaktiv topshiriqlar yordamida har bir o'quvchining shaxsiy ehtiyojiga moslashtirish (individuallashtirish) dolzarb masaladir.

Ta'lim jarayonini individuallashtirish – bu har bir o'quvchining psixologik, kognitiv va fiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda o'quv jarayonini erkin va moslashuvchan tashkil etishdir. Til o'rganish jarayonida barcha o'quvchilarga bir xil tempdagi topshiriqlar berish dars samaradorligini pasaytiradi. Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning ma'lumotni qabul qilish kanallari turlicha bo'lib, ular asosan uchta guruhga: vizual (ko'z qobiliyati orqali rasmlar, videolar yordamida), audial (eshitish orqali qo'shiqlar va dialoglar yordamida) va kinestetik (harakat orqali, masalan TPR – Total Physical Response metodlari yordamida) turlarga ajraladi ^[4].

Dars jarayonida faqat bir usuldanda foydalanish qolgan guruh o'quvchilarining e'tiborsiz qolishiga olib keladi. Ushbu maqolaning maqsadi – boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqish va qobiliyatlarini o'rganish asosida chet tili darslarini turli interaktiv topshiriqlar (didaktik o'yinlar, ko'rgazmali va harakatli mashqlar, raqamli vositalar) orqali individuallashtirish metodikasini ishlab chiqish hamda uning ta'lim sifatiga va bolalar psixologiyasiga ijobiy ta'sirini yoritishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet tilini o'qitish va bu jarayonni o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirish masalasi ko'plab xalqaro va mahalliy pedagog hamda psixolog olimlar tomonidan turli rakurslarda tadqiq etilgan. Jahon metodikasida kichik yoshdagi bolalarga xorijiy tillarni o'rgatishning lingvistik va didaktik asoslari L. Cameron ^[5] va P. Ur ^[6] kabi yirik tadqiqotchilar asarlarida o'z aksini topgan.

Xususan, L. Cameron o'zining "Teaching Languages to Young Learners" (Yosh o'rganuvchilarga til o'qitish) nomli fundamental asarida yosh bolalar tilni qoidalarni tahlil qilish orqali emas, balki ma'noni amaliy harakatlar, o'yinlar va vizual tasvirlar orqali instinktiv ravishda anglashini qat'iy ta'kidlaydi. Olimaning fikricha, darsda interaktiv topshiriqlarning qo'llanilishi shunchaki ko'ngilochar mashg'ulot emas, balki bolaning xotirasini faollashtiruvchi asosiy vositadir.

O'quvchilarning psixologik xususiyatlari, xususan, miya faoliyatining o'yin faoliyatidan o'quv faoliyatiga o'tishdagi inqirozli davrlari mashhur psixolog J. Piaje va o'zbek psixologiyasining yirik vakili E. G'oziyev ^[3] tomonidan chuqur o'rganilgan.

E. G'oziyevning ta'kidlashicha, 7-10 yoshli bolalar dars davomida o'z diqqatini uzoq vaqt bir joyda va bir xil tempda jamlay olmaydi. Ularning asab tizimi tez charchashga moyil bo'lganligi sababli, dars jarayoni harakatli (kinestetik) va qiziqarli (interaktiv) mashqlar bilan tez-tez o'zgartirib turilishi zarur.

Ta'limni individuallashtirish va o'quvchilarning axborot qabul qilish uslublarini (Learning styles) farqlash nazariyasi esa ilk bor amerikalik psixolog H. Gardnerning "Ko'p qirrali intellekt" (Multiple Intelligences) nazariyasiga borib taqaladi ^[7]. Ushbu nazariyaga asoslanib, keyingi avlod olimlari o'quvchilarni axborot qabul qilish kanallariga ko'ra VAK (Visual – ko'rish, Auditory – eshitish, Kinesthetic – harakat va sezgi) guruhlariga ajratish tizimini taklif qilishgan. Agar dars jarayoni faqat eshitish (o'qituvchining nutqi) asosida tashkil etilsa, sinfdagi vizual va kinestetik o'quvchilarning salohiyati yuzaga chiqmay qoladi.

O'zbekistonda chet tilini o'qitish metodikasi doirasida J.J. Jalolov, G.T. Maxkamova kabi olimlar ^[8] darslarda kommunikativ va kognitiv yondashuvlarni qo'llashni keng tadqiq etishgan. Biroq, mahalliy metodikada boshlang'ich sinf o'quvchilarining VAK uslublarini amaliy aniqlash va bevosita ularning har biriga moslashtirilgan o'ziga xos interaktiv topshiriqlar majmuasini ishlab chiqish hamda uning natijaviyligini empirik o'lchash bo'yicha maxsus tadqiqotlar hanuzgacha yetarli darajada yoritilmagan. Ushbu metodik bo'shliqni to'ldirish mazkur tadqiqot ishining bosh maqsadini belgilab berdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda nazariy va empirik tadqiqot metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Nazariy metodlar sifatida pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish, modellashtirish va umumlashtirish usullari qo'llanildi. Empirik metodlar sifatida esa amaliy pedagogik kuzatuv, suhbat, o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini aniqlovchi maxsus diagnostik so'rovnomalar hamda amaliy tajriba-sinov metodlari jalb etildi. Amaliy jarayonlarga umumta'lim maktablarining boshlang'ich (2-4) sinf o'quvchilari jalb etildi va tadqiqot ishlari mantiqan bir-biriga bog'liq bo'lgan ikkita asosiy bosqichda tashkil etildi.

Birinchi bosqichda o'quvchilarning kognitiv xususiyatlarini diagnostika qilish amalga oshirildi. Dastlab, sinfdagi o'quvchilarni bitta umumiy qolipga solmaslik maqsadida ularning ma'lumotni qabul qilish kanallari aniqlandi. Buning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatiga moslashtirilgan oson va rasmi test-so'rovnomalar o'tkazildi. Natijalarga ko'ra, sinf o'quvchilari shartli ravishda uchta kognitiv guruhga: axborotni ko'z bilan ko'rganda (rasmlar, chizmalar, rangli yozuvlar) yaxshi eslab qoluvchi vizual o'rganuvchilarga; ma'lumotni eshitish orqali (o'qituvchining tushuntirishi, qo'shiqlar, audio dialoglar) oson o'zlashtiruvchi audial o'rganuvchilarga hamda mavzuni harakat, o'yin va jismoniy faollik orqali yaxshi qabul qiluvchi kinestetik o'rganuvchilarga ajratildi.

Ikkinchi bosqichda interaktiv topshiriqlarni darsga integratsiya qilish jarayoni olib borildi. O'quvchilarning vizual, audial va kinestetik xususiyatlari aniqlangach, an'anaviy dars ishlanmasi butunlay o'zgartirilib, har bir guruhning ehtiyojini qondiradigan interaktiv topshiriqlar ishlab chiqildi. Xususan, vizual guruh uchun rasmi kartochkalar, so'zlarni ranglarga ajratib yozish va raqamli doskadagi qisqa animatsion roliklardan foydalanildi. Audial guruh uchun yangi so'zlarni yodlatishda ritmik o'yinlar, chet tilidagi qisqa she'r va qo'shiqlar hamda hikoya qilib berish metodlari qo'llanildi. Kinestetik guruh uchun esa to'liq jismoniy reaksiya (TPR) metodi asosida harakatli o'yinlar, masalan, fe'llarni harakat bilan ko'rsatish yoki sinf xonasi bo'ylab yashiringan harflarni topib, so'z yasash vazifalari berildi. Ushbu interaktiv metodlarni darsning turli qismlarida navbatma-navbat qo'llash orqali barcha o'quvchilarning darsga to'liq qamrab olinishi ta'minlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet tilini o'qitish jarayonini individuallashtirish masalasi zamonaviy pedagogika, psixolingvistika va kognitiv psixologiyaning fundamental nazariyalariga tayanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning bilish jarayonlarini ilmiy tahlil qilishda mashhur shveysariyalik psixolog Jean Piaget (Jan Piaje) nazariyasi muhim o'rin tutadi.

Jean Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko'ra, 7-11 yoshli bolalar "konkret operatsiyalar" (concrete operational) bosqichida bo'lib, ular axborotni mavhum grammatik qoidalar orqali emas, balki bevosita ko'z bilan ko'rish, ushlash va his qilish mumkin bo'lgan aniq obyektlar orqali qabul qiladilar^[5]. Bu nazariya chet tili darslarida quruq yodlashdan voz kechib, jarayonni interaktiv vositalar asosida tashkil etish zaruratini isbotlaydi. Bunga qo'shimcha ravishda, amerikalik tilshunos Stephen Krashening "Affektiv filtr gipotezasi" (Affective Filter Hypothesis) interaktiv topshiriqlarning ahamiyatini yanada oydinlashtiradi. Krashenga ko'ra, agar o'quvchida qo'rquv, xavotir yoki zerikish hissi yuqori bo'lsa, uning miyasidagi "affektiv filtr" yopilib qoladi va chet tili o'zlashtirilmaydi. Interaktiv o'yinlar va qiziqarli topshiriqlar esa ushbu filtrni pasaytirib, tilning tabiiy va oson o'zlashtirilishiga (language acquisition) zamin yaratadi^[6].

O'quv jarayonini individuallashtirish muammosi, shuningdek, axborotni qabul qilish kanallariga asoslangan VAK (Visual, Auditory, Kinesthetic) modeli hamda Allan Paivioning "Ikki yoqlama kodlash" (Dual Coding Theory) nazariyasi doirasida chuqur tahlil qilinadi. N. Flemingning VAK modeliga ko'ra, har bir bolaning o'ziga xos dominant o'rganish uslubi (learning style) mavjud bo'lib, darsda faqat bir xil usuldan foydalanish o'quvchilarning ma'lum bir qismini darsdan uzib qo'yadi^[7]. Allan Paivio esa inson miyasi vizual (rasm, harakat) va verbal (so'z, matn) ma'lumotlarni alohida kanallarda qayta ishlashini, agar dars jarayonida har ikkala kanal bir vaqtda ishga tushirilsa (masalan, interaktiv o'yinda ham so'z aytilib, ham harakat ko'rsatilsa), ma'lumotning xotirada saqlanish darajasi ikki barobar oshishini ilmiy isbotlagan^[8].

Zamonaviy ta'limda bolalarning ijodiy qobiliyatlarini (kreativligini) rivojlantirishda ushbu interaktiv topshiriqlarni STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) va TRIZ (Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi) texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish ilg'or pedagogik yechim hisoblanadi. STEAM yondashuvi chet tili darslariga tatbiq etilganda, bola tilni shunchaki fan sifatida emas, balki olamni anglash vositasi sifatida o'rganadi. G. Altshuller asos solgan TRIZ metodologiyasi esa bolalarda nostandart va divergent fikrlashni rivojlantirib, chet tilida muloqot qilish vaqtidagi psixologik to'siqlarni kreativ yechimlar orqali yengishga o'rgatadi^[9].

Xulosa qilib aytganda, interaktiv topshiriqlar – Piaget, Krashen, Paivio nazariyalari hamda STEAM/TRIZ texnologiyalarini o'zida mujassam etgan va har bir o'quvchining individual potensialini ro'yobga chiqaruvchi kompleks pedagogik mexanizmdir.



Interaktiv topshiriqlarning didaktik asosi amerikalik faylasuf va pedagog Jon Dyui (John Dewey) asos solgan pragmatik konstruktivizm nazariyasiga borib taqaladi. Dyui an'anaviy passiv tinglashga asoslangan ta'limni tanqid qilib, bolalar bilimlarni amaliy faoliyat jarayonidagina chuqur o'zlashtirishini isbotlagan. Konstruktivizm nazariyasiga ko'ra, o'quvchi ma'lumotni shunchaki qabul qiluvchi bo'sh idish emas, balki interaktiv o'yinlar va amaliy harakatlar orqali o'z bilimini o'zi quruvchi faol subyektdir. Chet tili darslarida bu nazariya qoidalarni yodlatish o'rniga, bolalarni o'zaro muloqotli o'yinlarga jalb qilish orqali tilni tabiiy o'zlashtirishga undaydi.

Avstraliyalik psixolog Jon Sveller (John Sweller) tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv yuklama nazariyasi (Cognitive Load Theory) boshlang'ich sinflarda nima uchun an'anaviy darslar samarasiz ekanligini ilmiy asoslaydi. Uning ta'kidlashicha, insonning qisqa muddatli ishchi xotirasi juda cheklangan bo'lib, bir vaqtning o'zida ko'p ma'lumotni ushlab tura olmaydi. Yangi chet tili so'zlarini o'rganish bolaning miyasiga katta tabiiy yuklama beradi. Agar o'qituvchi darsda zerikarli matnlar yoki faqat og'zaki tushuntirish kabi ortiqcha yuklamalardan foydalansa, bolaning xotirasi bloklanib qoladi. Interaktiv topshiriqlar, vizual vositalar va didaktik o'yinlar esa miyadagi ortiqcha yuklamani kamaytirib, axborotni uzoq muddatli xotiraga oson o'tkazishga xizmat qiladi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogikada o'yin elementlarini ta'limga olib kirish (gymifikatsiya) Karl Kapp kabi olimlar tomonidan neyrobiologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Bolalar interaktiv topshiriqlarni bajarganda va muvaffaqiyatga erishganda, ularning miyasida motivatsiya gormoni hisoblangan dofamin ajralib chiqadi. Bu gormon bevosita xotira markazi bo'lgan gippokamp faoliyatini rag'batlantiradi. Shu sababli, interaktiv o'yin orqali yodlangan chet tili so'zlari passiv o'qish orqali yodlangan so'zlarga nisbatan miyada mustahkamroq neyron tarmoqlarini hosil qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga asoslanib shuni qat'iy xulosa qilish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet tilini o'qitishda dars jarayonini barcha uchun bir xil qolipda va faqat yodlatishga asoslangan holda tashkil etish kutilgan pedagogik samarani bermaydi. Aksincha, bunday eskicha yondashuv yosh bolalarda o'quv faoliyatiga nisbatan sun'iy qo'rquv va befarqlikni keltirib chiqaradi. Har bir o'quvchining axborotni qabul qilish kanallarini, ya'ni vizual, audial va kinestetik xususiyatlarini aniq tashxis qilgan holda interaktiv topshiriqlarni individuallashtirish ta'lim sifatini oshirishning eng maqbul va zamonaviy strategiyasidir.

O'yinli, ko'rgazmali va harakatli metodlar bolalarning yosh psixologiyasiga to'la mos kelib, ulardagi o'yin faoliyatidan o'quv faoliyatiga o'tishdagi inqirozli davrni silliq yengib o'tishga yordam beradi. Kognitiv yuklama nazariyasi va affektiv filtr gipotezasi doirasida o'z amaliy isbotini topganidek, tabaqalashtirilgan interaktiv topshiriqlar bolaning miyasini toliqtirmaydi, asab tizimiga ortiqcha zo'riqish bermaydi, aksincha, xotira jarayonlarini tabiiy ravishda faollashtiradi. Pirovard natijada, bu yondashuv o'quv jarayonini zerikarli akademik mashg'ulotdan bolaning shaxsiy va ijodiy qobiliyatlarini maksimal darajada yuzaga chiqaruvchi qiziqarli bilish jarayoniga aylantiradi hamda kelajakda xorijiy tillarni chuqur o'zlashtirish uchun mustahkam kognitiv poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi. – Toshkent: 2023. – 45-48-betlar.
2. Jalolov J.J., Mahkamova G.T., Ashurov Sh.S. Ingliz tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 112-115-betlar.
3. betlar.
4. Cameron, L. (2001). Teaching Languages to Young Learners. Cambridge University Press. – P. 15-22.
5. Piaget, J. (2001). The Psychology of Intelligence. London: Routledge. – P. 138-140. Krashen, S. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon Press. – P. 30-32.
6. Fleming, N. D. (2001). Teaching and Learning Styles: VARK Strategies. Christchurch. – P. 45-48.
7. Paivio, A. (1986). Mental Representations: A Dual Coding Approach. Oxford University Press. – P. 53-55.
8. Altshuller, G. S. (1996). And Suddenly the Inventor Appeared: TRIZ. Technical Innovation Center. – P. 22-25.
9. Dewey, J. (1938). Experience and Education. Macmillan. – P. 25-29.
10. Sweller, J. (1988). "Cognitive Load During Problem Solving: Effects on Learning". Cognitive Science, 12(2). – P. 257-285.
11. Kapp, K. M. (2012). The Gamification of Learning and Instruction. Pfeiffer. – P. 60-65.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.